

«Yuridik shaxs uchun Internet tarmog‘idan va TAS-IX tarmog‘idan foydalana olishni taqdim etish»

Asosiy Xizmati

Xizmatni taqdim etish qoidalari va shartlari

1. XIZMATLARNI TAQDIM ETISH VA TARIFIKATSIYALASH QOIDALARI

Xizmatlar Tariflarning tasdiqlangan va amaldagi Narxnomasi (Tarif rejalariga muvofiq taqdim etiladi).

- 1.2. Barcha narxlar milliy valyutada ko‘rsatilgan va QQS’ni o‘z ichiga oladi.
- 1.3. Faqat Internet tarmog‘idan kiruvchi trafik tarifikatsiya qilinishi kerak. Davr uchun kiruvchi trafik hajmining belgilangan limitidan yuqori chiquvchi trafik hajmi trafikning tarifikatsiyalanadigan hajmiga kiritiladi. Belgilangan limitdan yuqori trafikning butun hajmi tanlangan tarif rejasiga bog‘liq holda tarifikatsiyalanadi.
- 1.4. «TAS-IX»ga kiruvchi tarmoqlarning diapazonlari doirasidagi trafik, shuningdek, Operator tarmog‘i doirasidagi ichki trafik tarifikatsiyalanmaydi.
- 1.5. Abonent to‘loviga kiritilgan trafik limitining hajmi qayd qilingan va sutkaning vaqtiga bog‘liq emas, agar boshqasi Abonentlar (yuridik shaxslar) uchun Tariflar (Tarif rejalarining) amaldagi Narxnomasidagi shartlar va tushuntirishlar bilan aytib o‘tilmagan bo‘lsa.
- 1.6. Taqdim etilgan trafik limitining sarflanmagan hajmi keyingi kalendar oyiga o‘tmaydi.
- 1.7. Abonent to‘lovi yuridik shaxslar uchun Abonent tomonidan tanlangan tarif rejasining narxidan iborat.
- 1.8. Birinchi ulanishda Abonentning Shaxsiy hisob raqamidan Ro‘yxatga olish to‘lovi (aksiya davrlari bundan mustasno va boshqalar) va Abonentlar (yuridik shaxslar) uchun tegishli tanlangan Tarif (Tarif rejasи) miqdoridagi Abonent to‘lovi chiqarib tashlanadi.
- 1.9. Abonent (yuridik shaxs) ulanganda, kalendar oyi davomida (1-sanadan boshlab emas), abonent to‘lovining miqdori va abonent to‘loviga kiritilgan trafik limiti ulangan kundan boshlab joriy kalendar oyining oxirgi sanasigacha proporsional ravishda qayta hisoblab chiqiladi. Oldindan to‘langan to‘lov va hisobdan chiqarilgan proporsional abonent to‘lovi o‘rtasidagi farq Abonentning kundalik saldosida aks ettiriladi va undan limitdan tashqari trafikni to‘lash yoki keyingi oyning abonent to‘lovi uchun foydalanish mumkin.
- 1.10. Har bir kalendar oyining birinchi sanasida tizim Abonent (yuridik shaxs)ning Shaxsiy hisob raqamidan kundalik tarif rejasining har oylik abonent to‘lovidan 100 foiz miqdoridagi summani avtomatik ravishda va so‘zsiz hisobdan chiqaradi,

Abonentning hisobida abonent to‘lovining 100 foizidan ko‘p yoki teng summa bo‘lishi sharti bilan.

1.11. Abonentning Shaxsiy hisob raqamida yetarlicha mablag‘lar bo‘lmagan holda, Xizmatdan foydalanish tegishli summa to‘langunga qadar uzib qo‘yiladi va abonent to‘lovini hisobdan chiqarish abonentning Shaxsiy hisob raqamiga tegishli summa kelib tushgan kunda amalga oshiriladi. Bunda to‘lov joriy kalendar oyi davomida bajarilishi kerak, to‘lov oyning qaysi kunida bajarilganidan qat’iy nazar, abonent to‘lovi butun oy uchun 100 foiz miqdorida hisobdan chiqariladi.

1.13. Tizim, shuningdek, Abonentning Shaxsiy hisob raqamidan Abonent tomonidan Shaxsiy kabinetda yoki Sotuvlar Ofisida aktivlashtirilgan Asosiy Xizmat bilan bog‘liq bo‘lgan Qo‘s Shimcha xizmatlarni avtomatik ravishda va so‘zsiz hisobdan chiqaradi.

1.14. Operatorning billing tizimi barcha yozuvlarni va Shaxsiy hisob raqamdagи barcha hisobdan chiqarishlar tarixini hamda Abonentning Shaxsiy hisob raqamiga oxirgi 3 oy ichidagi hisoblangan pul mablag‘larini Shaxsiy kabinetda saqlaydi va aks ettiradi.

2. TARIF REJASINI ALMASHTIRISH QOIDALARI

2.1. Abonentlar (yuridik shaxslar) tarif rejasini ikki usul bilan almashtirish imkoniyatiga egadirlar:

2.1.1. Tarif rejasini almashtirish abonentning Shaxsiy kabinet orqali rasmiylashtirilgan dastlabki talabnomasi bo‘yicha bajarilishi mumkin. Bunday holda tarif rejasini keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan tanlangan tarif rejasiga almashtiriladi. Tarif rejasining almashtirilishi bekor qilinishini ham keyingi oyning birinchi sanasigacha bajarish mumkin.

2.1.2. Almashtirishning sanasini ko‘rsatgan holda tarif rejasining almashtirilishi to‘g‘risidagi SO‘ga yozma ariza bo‘yicha. Qayta hisob-kitoblarning quyidagi qoidalarini qo‘llagan holda tarif rejasini ko‘rsatilgan sanadan o‘zgartiriladi (yoki ko‘rsatilgan sanadan 2 ish kunigacha og‘ish bilan):

a. Abonent to‘lovi va trafik limitining summasi Abonent to‘lovi doirasida joriy kalendar oyidagi kunlar miqdoriga bo‘linadi.

b. Abonent to‘lovi va trafik limiti summasining olingan natijasi joriy kalendar oyida tarif rejasini almashgan kungacha joriy tarif rejasini bo‘yicha ishlov berilgan kunlar miqdoriga ko‘paytiriladi.

c. Bunda, joriy oyda abonent tomonidan ishlab chiqilgan trafik summasi va joriy kunga trafik limitining proportsional summasi o‘rtasidagi farq – ijobiy bo‘lsa, ushbu farq biling tizimi tomonidan limitdan yuqori kundalik tarif bo‘yicha qo‘s Shimcha ravishda tarifikatsiyalanadi. Agar farq salbiy bo‘lsa (yuqori limitdan oshmagan bo‘lsa), u holda tarif rejasini almashtirishda hech qanday qo‘s Shimcha to‘lovlar yozilmaydi.

d. Abonent to‘lovinging proportsinal qoldig‘i (oy boshida hisobdan 100 foiz miqdorda hisobdan chiqariladigan) oy oxirigacha billing tizimi tomonidan abonent hisob raqamiga qaytariladi.

e. Yangi tarif rejasiga o‘tish paytida joriy tarif rejasini bo‘yicha abonent to‘lovi, shuningdek, unga kiritilgan trafik limiti joriy kalendar oyining oxirigacha qolgan kunlar miqdoriga proportsional ravishda qayta hisoblanadi.

f. Yangi tarif rejasini doirasida xizmatlardan foydalanish abonent Shaxsiy hisob raqamidagi saldodan qat’iy y nazar shu zahoti aktivlashtiriladi.

g. Yangi tarif rejasini doirasidagi barcha keyingi hisob-kitoblar yangi tanlangan tarif rejasining qoidalariga ko‘ra billing tizimi tomonidan amalga oshiriladi.

2.1.3. Yuridik shaxs tarif rejasini faqat bir oyda bir marta almashtirish huquqiga ega.

2.1.4. Yuridik shaxslar uchun tarif rejasini almashtirish operatsiyasi bepul amalga oshiriladi.

3. ABONENT (YURIDIK SHAXS)NI XIZMATDAN BLOKIROVKA QILISH VA UZIB QO‘YISH QOIDALARI

3.1. Abonentlar (yuridik shaxslar) uchun Operator Xizmatlaridan foydalanishni blokirovka qilishning quyidagi qoidalari amal qiladi:

3.1.2. Abonentning kundalik qarzi bo‘limgan holda (ya’ni oxirgi taqdim etilgan hisob-fakturada ko‘rsatilgan butun summa hisob-fakturada belgilangan muddatda to‘langan bo‘lsa), abonent Shaxsiy hisob raqamidagi saldodan qat’iy nazar Xizmatlardan foydalanish blokirovka qilinmaydi.

3.1.3. Agar bunda Abonentning kundalik qarzi joriy kalendar oyining oxirgi sanasigacha saqlanib qolgan bo‘lsa, Xizmatlardan foydalanish avtomatik ravihda uzib qo‘yiladi, Abonent hisobining maqomi keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan «**Blokirovka qilingan**» maqomiga o‘tadi. Xizmatlardan foydalanishni aktivatsiya qilish Abonent kundalik qarzining tegishli summasi to‘langanda avtomatik ravishda yuz beradi.

3.1.4. Shaxsiy hisob raqamning «Blokirovka qilingan» maqomi abonent bilan tuzilgan Sharnoma holatini aktiv bo‘limgan holatga o‘tkazadi va Operatorning billing tizimi u bilan hech qanday amallarni (shu jumladan, hisobdan chiqarishlarni) bajarmaydi, ayni paytda Asosiy va u bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlardan foydalanish blokirovka qilingan bo‘ladi.

3.1.5. Agar «Blokirovka qilingan» maqomiga ega Abonent o‘z Xizmatlarining yangidan aktivlashtirilishini xohlasa, u to‘lanmagan va foydalanilmagan davr uchun «Portni rezervlash» Qo‘sishimcha xizmati uchun tarifga teng miqdordagi jarimani to‘lashi va joriy oy uchun 100 foiz Abonent To‘loviga teng bo‘lgan summani kiritishi kerak.

3.1.6. Agar Abonent (yuridik shaxs) «Blokirovka qilingan» maqomida 1 to‘liq kalendar oyidan ko‘p vaqt bo‘lsa, tizim abonent Shaxsiy hisob raqamining maqomini «Tugatish» maqomiga o‘zgartiradi. «Tugatish» maqomida Operator Asosiy xizmat va

bog‘langan Qo‘shimcha xizmatlar bo‘yicha Abonent bilan tuzilgan shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qiladi.

3.1.7. Shartnoma bekor qilinganda abonentga muloqot uchun nomerlar bo‘yicha bekor qilinish fakti to‘g‘risida va shartnomaning amal qilish vaqt davomida Abonentga taqdim etilgan mijoz uskunasini qaytarish zarurligi to‘g‘risida xabar qilinadi.

3.1.8. Abonent (yuridik shaxs)ning Operator Xizmatlaridan uzib qo‘yilishi va u bilan shartnomaning bir tomonlama tartibda bekor qilinishi Abonentni kerakli tarzda rasmiylashtirilgan hisob-fakturalarda ko‘rsatilgan qarzlar summasini to‘lashdan ozod etmaydi.

3.1.9. Ommaviy Ofertaga ko‘ra, Abonent Shartnomaning amal qilish vaqt davomida taqdim etilgan mijoz uskunasini 30 kalendar kuni ichida qaytarib berishga majbur. Aks holda uskunani qaytarish to‘g‘risidagi masala sudga oshiriladi.

3.1.10. Shaxsiy hisob raqamlari «Tugatilgan» maqomida bo‘lgan sobiq Abonentlar eski shartnomalarni tiklay olmaydilar va Xizmatlarga ularish xohishini bildirganlarida yangi abonentlar uchun mo‘ljallangan barcha tegishli qoidalarni qo‘llagan holda yangi abonentlar sifatida ko‘rib chiqiladi.

4. ABONENT (YURIDIK SHAXS)NING TASHABBUSI BILAN XIZMATDAN UZIB QO‘YISH YOKI SHARTNOMANI BEKOR QILISH QOIDALARI

4.1. Abonent (yuridik shaxs) o‘z tashabbusi bilan Xizmatlardan uzib qo‘yish istagini bildirganda:

4.1.1. Abonent Operatorning Sotuvlar Ofisiga yozma ariza berishi kerak.

4.1.2. Xizmatlar uchun Operator oldidagi qarzlari bo‘lsa, ularni to‘lashi kerak.

4.1.3. Abonent tashabbusi bilan va u bilan kelishilgan holda Operator Xizmatlaridan uzib qo‘yish ikki variantda amalga oshirilishi mumkin:

- keyingi kalendar oyining birinchi sanasidan. Bunda Abonent Operatorga tegishli bo‘lgan barcha uskunani to‘liq but va ishga yaroqli holatda keyingi 3 kun ichida qaytarishi kerak;

- xizmatning uzib qo‘yilishi uchun ariza joriy oyning 25-sanasidan kechiktirmasdan berilishi sharti bilan joriy oy davomida. Xizmatni uzib qo‘yish muddati ariza berilgan paytdan boshlab (Abonent tomonidan ko‘rsatiladi) 5 ish kuni. Bunday holda abonentning maqomi Abonent tomonidan ko‘rsatilgan sanadan boshlab «Blokirovka qilingan» maqomiga o‘zgartiriladi. Ayni vaqtida, joriy abonent oyi uchun hisobdan chiqarilgan abonent to‘lovi va qo‘shimcha bog‘langan xizmatlar uchun to‘lov kuyadi, qaytarib berilmaydi va qayta hisoblanmaydi.

4.1.4. Shartnoma bekor qilingan vaqtida Abonent (yuridik shaxs)ning Shaxsiy hisob raqamida ijobjiy saldo mavjud bo‘lgan holda, Abonent (yuridik shaxs) pul

mablag‘larining yuridik shaxsning bankdagi hisob raqamiga o‘tkazish yo‘li bilan qaytarilishini talab etishga haqlidir. Muqobil variant sifatida, Abonent pul mablag‘lari qoldig‘ining to‘liq hajmda Operator tomonidan Abonentga ko‘rsatiladigan boshqa xizmatning (masalan, qayd qilingan telefoniya xizmatlarining hisobiga va b.) Shaxsiy hisob raqamiga o‘tkazilishini so‘rashi ham mumkin.